



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024-yil 29-avgust

385-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan amalda foydalanib kelinayotgan, viloyat hududida joylashgan (oqib o'tgan) 27 ta soyning foydalanishida bo'lgan (egallab turgan) va sohil bo'yи mintaqasi maydonidagi yer uchastkalarini doimiy foydalanish huquqi asosida ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-sodan qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 41-sodan bayoni ijrosiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining 2024-yil 26-yanvardagi 01-10/52-sodan xatini inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuning 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy communal xo'jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan amalda foydalanib kelinayotgan, viloyat hududida joylashgan (oqib o'tgan) 27 ta soy - Chiroqchi tumanidagi "Ayoqchi", Qamashi tumanidagi "Laylim", Dehqonobod tumanidagi "Xumdonsov" va "Konsov", Shahrisabz tumanidagi "Suvsulton", "To'damaydon" va "Xo'jaqambar", Kitob

tumanidagi “Aylanma”, “Gavxona”, “Jayraxona”, “Ravot”, “Takiya”, “Shurjar”, “Oqboy”, “Sho‘robsoy”, “Makridsov”, “Qaynarsov”, Yakkabog‘ tumanidagi “Qorabog‘sov”, “Qorabog‘ tashlama”, “Olmazorsov”, “Muchinsov”, “To‘lasoy”, “Do‘ltalisoy”, “Yangi-qishloq”, “Baxmalsoy”, “Boboshodi” va “Qoratutsov” soylarining foydalanishida bo‘lgan (egallab turgan) jami 1214,24 hektar (shundan 328,49 hektari - soy o‘zani maydoni, 885,75 hektari - soy bo‘yi mintqa) maydonlaridan iborat, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlari ilovaga muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasiga (G‘.Hamroyev) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasiga qarashli 27 ta - Chiroqchi tumanidagi “Ayoqchi”, Qamashi tumanidagi “Laylim”, Dehqonobod tumanidagi “Xumdonsov” va “Konsov”, Shahrisabz tumanidagi “Suvulton” , “To‘damaydon” va “Xo‘jaqambar”, Kitob tumanidagi “Aylanma” , “Gavxona”, “Jayraxona”, “Ravot”, “Takiya”, “Shurjar”, “Oqboy” soyi, “Sho‘robsoy”, “Makridsov”, “Qaynarsov”, Yakkabog‘ tumanidagi “Qorabog‘sov”, “Qorabog‘ tashlama”, “Olmazorsov”, “Muchinsov”, “To‘lasoy”, “Do‘ltalisoy”, “Yangi-qishloq”, “Baxmalsoy”, “Boboshodi” va “Qoratutsov” soylarining foydalanishida bo‘lgan yer maydonlarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta’minlab, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish topshirilsin.

4. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi birgalikda 27 ta soyning foydalanishida bo‘lgan yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanishini monitoring qilib borsin.

5. Ajratilgan yer maydonlaridan belgilangan maqsadlarda foydalanilmaganda mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko‘ra bekor qilinishi belgilab qo‘yilsin.

6. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari U.Uzakov va viloyat hokimining o‘rinbosari M.Azizov zimmalariga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 29-avgustdagি
385-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Amu-Qashqadaryo irrgatsiya tizimlari havza boshqarmasi tasarrufidagi Qashqadaryo viloyati hududida joylashgan (oqib o‘tgan) soylarning yer maydonlarini xatlovdan o‘tkazish natijasi to‘g‘risida
MA'LUMOT

T/ r	Obyekt nomi	Hudud nomi	Umumiy uzunligi, km	Jami yer maydoni, ga	Shundan	
					Soy o‘zani maydoni	Soy bo‘yi mintaqa maydoni
1	2	3	4	5	6	7
1	“Ayoqchi” soy	Chiroqchi tumani	18,00	152,62	10,63	141,99
2	“Laylim” soy	Qamashi tumani	4,52	26,02	5,83	20,19
3	“Xumdonsov” soyi	Dehqonobod tumani	6,00	5,72	3,44	2,28
4	“Konsov” soyi	Dehqonobod tumani	13,45	47,16	22,79	24,37
5	“Suvsulton” soy	Shahrisabz tumani	2,77	6,47	2,33	4,14
6	“To‘damaydon” soy	Shahrisabz tumani	6,15	13,69	5,47	8,22
7	“Xo‘jaqambar” soy	Shahrisabz tumani	4,12	8,29	4,13	4,16
8	“Aylanma” soyi	Kitob tumani	3,14	8,82	3,69	5,13

9	“Gavxona” soyi	Kitob tumani	7,07	27,02	7,11	19,91
10	“Jayraxona” soyi	Kitob tumani	3,73	15,33	1,93	13,40
11	“Ravot” soyi	Kitob tumani	6,35	21,11	11,19	9,92
12	“Takiya” soyi	Kitob tumani	0,57	0,47	0,24	0,23
13	“Shurjar” soyi	Kitob tumani	4,05	15,28	2,72	12,56
14	“Oqboy” soyi	Kitob tumani	11,31	58,20	9,78	48,42
15	“Sho‘robsoy” soyi	Kitob tumani	21,06	101,67	22,21	79,46
16	“Makridsov” soyi	Kitob tumani	25,04	141,48	28,17	113,31
17	“Qaynarsov” soyi	Kitob tumani	15,87	64,49	8,32	56,17
18	“Qorabog‘sov” soyi	Yakkabog‘ tumani	22,10	164,22	61,71	102,51
19	“Qorabog‘ tashl ama” soyi	Yakkabog‘ tumani	13,50	74,26	36,12	38,14
20	“Olmazorsov” soyi	Yakkabog‘ tumani	2,53	0,51	0,51	0,00
21	“Muchinssov” soyi	Yakkabog‘ tumani	4,30	12,81	3,49	9,32
22	“To‘lasov” soyi	Yakkabog‘ tumani	4,00	16,50	3,68	12,82
23	“Do‘ltalissov” soyi	Yakkabog‘ tumani	4,00	14,70	2,22	12,48

24	“Yangi-qishloq” soyi	Yakkabog‘ tumani	5,91	37,60	19,07	18,53
25	“Baxmalsoy” soyi	Yakkabog‘ tumani	2,10	5,60	0,88	4,72
26	“Boboshodi” soyi	Yakkabog‘ tumani	4,31	13,77	3,60	10,17
27	“Qoratutsoy” soyi	Yakkabog‘ tumani	21,30	160,43	47,22	113,21
Hammasi			237,25	1214,24	328,49	885,75